

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ  
ЎЗБЕК ТИЛИ, АДАБИЁТИ ВА ФОЛЬКЛОРИ ИНСТИТУТИ**

**“Изланиш самаралари”**

**мавзусидаги ёш тилшунос ва адабиётшуносларнинг  
республика илмий-назарий анжумани  
№ 5**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2019 йил 11 декабрь**

**Тошкент – 2019**

2. Тўхлиев Б. Ўзбек адабиёти. –Тошкент: Ўқитувчи, 2000.
3. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, №4, 40-бет.
4. Ҳожиёв А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973.
5. Маънолар маҳзани. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018.
6. Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.
7. <https://www.litdic.ru/folklorizm/>
8. <http://www.chronobiology.ru/wp-content/plugins/gtrans/gtrans/termin-folklorizm.htm>
9. Ҳожиёва Ш. Чўлпон ва миллий шеърятнинг янгиланиши. – Тошкент, 2019. –Б. 47.

***Odinaxon SAIDAXMEDOVA, tayanch doktorant  
(Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU)***

## YANGLISH TAHLIL YONDASHUVINING TIL O‘ZLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

Til o‘zlashtirish to‘liq anglanmaydigan jarayon. Til o‘zlashtiruvchilar til o‘zlashtirish jarayonini bilmagan holda tildan kommunikatsiyada foydalanadilar. Til o‘zlashtirish jarayonining natijasi bo‘lgan malaka (so‘zlashuv layoqati) ham ixtiyorsiz ravishda kechadi. Umuman olganda, til qoidalarini o‘zlashtirish anglangan tarzda amalga oshmaydi. Boshqacha aytganda, til o‘zlashtirish shubhasiz (so‘roqsiz) o‘rganish, norasmiy yoki tabiiy tarzda amalga oshadigan til egallash jarayonidir. O‘zlashtirish tilni “to‘plash” jarayonidir.

Chet tilida so‘zlashuv malakasini rivojlantirish til o‘rganish bilan amalga oshadi. Chet tilini egallash uni anglangan tarzda o‘rganish bilan bog‘liq, ya’ni til grammatikaga asosan o‘rganiladi, nutqqa ham qoidadagidek olib chiqiladi. Yana ham aniqroq qilib aytganda, til o‘rganish til haqida bilishdir, tilni grammatika va qoidalarga asosan tanishdir. Til o‘rganishni tilni formal bilish yoki anglangan tarzda o‘rganish deyish mumkin.

Til o‘zlashtirish va o‘rganishda bixevioristik yondashuv hamda kognitiv yondashuv muhim ahamiyatga ega. 1950-60-yillarda til o‘qitish va o‘rganish jarayoniga bixevioristik yondashuv katta ta’sir o‘tkaza boshladi. Bu qarashga ko‘ra, insonning xulq-atvori qabul qilinishi, yozib olinishi

hamda o‘lchanishi mumkin. Til o‘rganish xuddi velosiped haydashni yoki pianino chalishni o‘rganish jarayoniga o‘xshaydi. Buni “odatning shakllanishi” deb hisoblash mumkin<sup>1</sup>. Bolalar ona tilini ota-onalaridan hamda ularga g‘amxo‘rlik qiluvchi enagadan (bog‘cha tarbiyachisi) taqlid qilish orqali o‘zlashtiradilar hamda ularga berilgan ijobiy yoki negativ reaksiyalar orqali taqlidni mustahkamlab boradilar.<sup>2</sup> Bixevioristik yondashuvga ko‘ra, chet tilini o‘rganish ham taqlid hamda uni mustahkamlash jarayonidir, til o‘rganuvchilar yangi tilni ko‘chirib olish va eshitganlarini qayta takrorlash orqali o‘zlashtiradilar. “Transfer – ko‘chirish” bu yondashuvning eng muhim tushunchasidir. Ona tili chet tilini o‘rganish jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ona tili va chet tilidagi o‘xshash morfemalar “ijobiy ko‘chirish”ga sabab bo‘ladi va chet tilini tezroq va osonroq o‘rganilishiga xizmat qiladi. Masalan, ingliz va nemis tilida gapning tartibi bir xil bo‘lgani uchun til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi. Tillar strukturasiidagi farqlar “negativ ko‘chirish”, ya‘ni interferensiyaga sabab bo‘ladi. Ona tili strukturasiidagi “bo‘shliq” chet tilini o‘rganish jarayonida yangilish keltirib chiqaradi<sup>3</sup>. Masalan, koreys tilida egalik ko‘rsatkichining mavjud emasligi o‘zbek tilidagi shu qo‘shimchaning ularning og‘zaki yoki yozma nutqida muammolar keltirib chiqarishi hamda ularning kechroq o‘zlashtirilishiga olib keladi. Biroq tadqiqotchi R. Ellis chet tilini o‘rganishda faqat taqlidning o‘zi yetarli emas, deb hisoblaydi. Misol sifatida bolalarda dastlabki til ko‘nikmalari paydo bo‘lgach, ularning qo‘shimcha yoki so‘zni o‘zlari yaratishlari mumkinligi haqida yozadi.<sup>4</sup>

Bixevioristik nazariya bilan bir qatorda kognitiv yondashuv ham mavjud bo‘lib, bu yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish bu – kognitiv jarayon bo‘lib, ong, idrok, fikrlash, tasavvur bu yondashuvning asosiy omillari hisoblanadi. Kognitiv yondashuvda til o‘rganuvchilar tilni xato, yangilishlar va qayta tekshirish orqali o‘rganadilar va oqibatda chet tilini o‘zlashtiradilar. Boshqacha aytganda, tilni sinfxonada turli o‘qitish metodlari bilan o‘rgangandan ko‘ra, uni tabiiy sharoitda o‘rganish yaxshi natija beradi.

1950-yillarda til o‘zlashtirish masalasida qiyosiy tahlil eng mashhur gipotezalardan biri edi. Qiyosiy tahlil gipotezasi bixevioristik yondashuvga asosan yuzaga kelgan edi, ya‘ni ona tili va o‘rganilayotgan chet tili o‘rtasidagi farqli jihatlarni aniqlashga qaratilgan edi. Bu gipotezaga ko‘ra,

<sup>1</sup> Brown, D. (1994). Principles of language learning and teaching. Eaglewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Regents.

<sup>2</sup> Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press.

<sup>3</sup> Crystal, D. (1997). The Cambridge encyclopedia of language. New York, NY: Cambridge University Press.

<sup>4</sup> Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press.

ona tili va o'rganilayotgan chet tilidagi o'xshash grammatik ko'rsatkichlar ularni tez o'zlashishiga, farqlilari esa o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi. Til o'rganishda "yanglish tahlillar" o'rganish jarayonining rivoji sifatida qaralgan.

Yanglish tahlil chet tili o'rganish sohasida o'rganuvchining tilni "qurish" qobiliyatiga ega deb qaragan dastlabki yo'nalishlardan biridir. U chet tili o'rganuvchilarda ularning xatolarini tavsiflash va tahlil qilishga asoslangan. Bu nazariyaga oid dastlabki yirik qadam S.Pit Korderning "Til o'rganuvchilarning yanglish tahlillari ahamiyati" nomli maqolasidir. Maqolada yanglish tahlillar o'rganuvchidagi kamchilik sifatida emas, balki o'rganish jarayonidagi o'sish sifatida baholanadi. Korderga ko'ra, xatolar til o'rganuvchilarning ongidagi oynalardir, ular tilni "kashf qilish" jarayonida, ya'ni o'rganish mobaynida yuzaga keladi.

O'quvchilarning xatolarini tahlil qilish tartibi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:<sup>1</sup>

- *O'rganiladigan til namunalari to'plami.* O'rganilayotgan tillarning aksariyat namunalari bir xil topshiriq yoki testga javob beradigan ko'plab tadqiqotchilar tomonidan to'plangan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi tadqiqotlar chet tili ta'sirining oshishi va xatolar paydo bo'lishidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun bir necha o'quvchilar tomonidan haftalar, oylar va hatto yillar davomida to'plangan namunalardan foydalanadi.

- *Yanglishlarni aniqlash.* Bu bosqichda o'quvchilarda kuzatilgan yanglishish (til o'rganuvchida bu haqida bilimning mavjud emasligi) hamda xatolar (til o'rganuvchida bilim mavjud, lekin xotirada pasayishi) farqlanadi.

- *Yanglishlarni tavsiflash.* Tahlil maqsadidan kelib chiqib, yanglishlar til darajasiga (fonologik, morfologik, sintaktik); umumiy lingvistik kategoriyalarga (egalik, kelishik, zamon); aniq lingvistik elementlarga (otga yoki fe'l tuslanishiga oid qo'shimchalar) ko'ra tavsiflanadi.

- *Yanglishlarni tushuntirish.* Nima uchun xato qilinganligini hisobga olish – bu chet tilini o'zlashtirish jarayonlarini tushunishga urinishda eng muhim qadam. Yanglish ikki: *tillararo* (birinchi tildan ikkinchi tilga uzatilgan elementning mavjud emasligi bilan bog'liq) hamda *til ichidagi* omillar (o'rganilayotgan tilda bu elementlarning kam kuzatilishi bilan bog'liq) omilga bog'liq. Tadqiqotchi M.Saville-Troike

---

<sup>1</sup> Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press.

yanglishlarni tushuntirishda misollardan foydalangan<sup>1</sup>. Unga ko'ra, ingliz tilini o'rganayotgan koreyalik til o'rganuvchilar ingliz tilidagi artikllarni juda qiyinchilik bilan o'zlashtiradi, buning sababi koreys tilida artikllarning mavjud emasligidir. Tadqiqotchi buni tillararo kuzatiladigan yanglishlar sifatida tushuntiradi. Til ichidagi yanglishlarni til o'rganuvchida yordamchi fe'llarni qo'llash bilan bog'liq holatni kuzatgan, ya'ni yordamchi fe'llardan qaysi o'rinlarda foydalanishning to'liq o'zlashtirilmaganligini aniqlagan.

- *Yanglishlarni baholash.* Ushbu bosqichda yanglishning ko'rib chiqilayotgan kishiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Yanglishlar ma'no jihatdan noto'g'ri talqin qilinmagan holatda til o'rganuvchini ijobiy baholash mumkin bo'ladi.

Tadqiqotchi D.Larsen-Friman bu gipotezaning nazariy hamda metodologik muammolari haqida quyidagilarni yozadi: "Bu gipotezasiga ko'ra, ona tili hamda o'rganilayotgan chet tilidagi farqli grammatik ko'rsatkichlar qiyin o'zlashtiriladi deb qaralgan, biroq shu ikki tildagi o'xshash grammatik ko'rsatkichlar har doim ham tez va oson o'zlashmaydi"<sup>2</sup>. Yanglish tahlillar chet tilini o'rganish jarayonini to'liq ifoda eta olmaydi, chunki ular faqat shu ikki tilda aniqlangan farqlarni o'rganish bilan chegaralanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu gipoteza chet tilini o'rganish hamda o'zlashtirish jarayonini o'zida to'liq qamrab olmaydi, chet tilini o'rganish va o'zlashtirish jarayoni yanglish tahlillarningina o'zi emas, balki yanglish tahlillar shu jarayonning kichik bir qismi sifatidagina mavjud.

Yanglish tahlil chet tilini o'rganishda jarayon sifatida davom etmoqda. Lekin tasnifdagi noaniqlik, til xususiyatlarini to'liq qamrab ololmasligi hamda yanglishning oldini olish uchun tilning muayyan tuzilmasidan foydalanmaslikka harakat qilish kabi kamchiliklar qayd etilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Brown, D. (1994). Principles of language learning and teaching. Eaglewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Regents.
2. Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press.

---

<sup>1</sup> Muriel Saville-Troike. (2006) Introducing Second Language Acquisition. Cambridge University Press The Edinburgh Building, Cambridge, UK.

<sup>2</sup> Larsen-Freeman, D. (1976). An explanation for the morpheme acquisition order of second language learners. Language Learning. 26. P.125-134.

3. Crystal, D. (1997). The Cambridge encyclopedia of language. New York, NY: Cambridge University Press.
4. Muriel Saville-Troike. (2006) Introducing Second Language Acquisition. Cambridge University Press The Edinburgh Building, Cambridge, UK.
5. Larsen-Freeman, D. (1976). An explanation for the morpheme acquisition order of second language learners. Language Learning. 26. P.125-134.

***Шахноза ГУЛЯМОВА, таянч докторант  
(Бухоро давлат университети)***

### **ЭВФЕМИЗМДА ГЕНДЕР МАЪНОНИ ИФОДАЛАШДА ТИЛ ВА МАДАНИЯТ АЛОҚАСИНИНГ МУШТАРАКЛИГИ**

Лингвокультурология–тилшунослик ва культурология кесишуви асосида пайдо бўлган мураккаб илмий йўналиш. У маданият билан тилнинг ўзаро боғлиқлиги ва таъсирини, тилни маданиятнинг феномени сифатида ўрганади. Бу–миллий тил призмаси орқали дунёни маълум даражада кўриш, тилнинг маълум миллат ақл ва маданияти орқали намоён бўлиши [1].

XX аср охирида илм-фаннинг фаол ривожланиши билан бирга тилни маданият феномени сифатида ўрганадиган лингвокультурология (маданий лингвистика) фани фаол ривожланиб борди. Бу эса миллий тил призмасидан фойдаланиб дунёни кўриш демак. Бу фан доирасида тил нафақат маданият воситаси, балки менталитет вакили сифатида ҳам фаолият кўрсатади. Яъни тил ва маданият доимо ҳамкорликда, тил–менталитетни акс эттира оладиган восита.

Маданиятнинг тилга таъсири турли маданиятларда мулоқот жараёнининг ўзига хослиги, хусусан, сўз ва грамматиканинг баъзи бир хусусиятларида намоён бўлади [7].

Маълумки, тил ва маданият – узвий алоқадор ходиса. Ҳар бир халқнинг ўзига хос хусусиятлари, урф-одати, маданияти, биринчи навбатда, тилида акс этади. Тилда мавжуд бўлган ходисалар – мақол-матал, фразеологизм, тасвирий ифода–ўхшатиш, шу жумладан, тадқиқотимиз объекти бўлган эвфемизм ҳосил бўлиши ўша халқнинг тарихи, этногенези, маданияти ва тараққиёти билан чамбарчас боғлиқ.

С.И.Романов тилнинг шартли эвфемизациялашуви халқ маданиятига боғлиқлигини ўрганса [7], А.Ю.Миронина эвфемизмни тил

## МУНДАРИЖА

**A. Binnatova.** Daşkənd alimləri və doktorantları ilə görüşüm həyatimin ən xoşbəxt günlərinə yazıldı.....3

### 1-ШЎЪБА

#### *Тилшунослик*

<b>Ф. Мусаева.</b> Оламнинг диалектал лисоний манзараси.....	7
<b>М.Усмонова.</b> Ўзбек тилида сўз шаклларининг содаллашиши.....	14
<b>Sh.Norbayeva.</b> Ogahiy ijodida qo‘llanilgan sifatdosh shakllarining leksik-semantik xususiyatlari.....	18
<b>Д. Ҳасанова.</b> Тилшуносликда лексик маъно ва мазмун талқини.....	22
<b>З.Муқимова.</b> Ўткир Ҳошимов асарларидаги прецедент номларнинг лингвомаданий хусусияти.....	25
<b>М.Сабирова.</b> Медиалингвистика – тилшуносликнинг янги йўналиши сифатида.....	30
<b>Н.Ахмедова.</b> Образли тафаккурнинг фалсафий ва лисоний талқини.....	35
<b>А.Ахмедова.</b> “Меҳробдан чаён” романида қўлланган фольклоризмлар.....	40
<b>О. Saidaxmedova.</b> Yanglish tahlil yondashuvining til o‘zlashtirishdagi ahamiyati.....	44
<b>Ш. Гулямова.</b> Эвфемизмда гендер маънони ифодалашда тил ва маданият алоқасининг муштараклиги.....	48
<b>И.Мадияров.</b> Тез айтишларда топонимларнинг вазифавий хусусиятлари.....	53
<b>М.Хомидова, А.Хайруллаев.</b> Шеърини матнларда интертекстуаллик.....	59
<b>Г.Алламбергенова.</b> И.Юсупов поэзиясында соматикалык фраземалардың жумсалыўы.....	63
<b>Ф.Каримова.</b> Диалог нутқининг асосий кўриниши сифатида.....	68
<b>М.Норова.</b> Фонетик ўзгаришли грамматик шакллардаги коннотатив маънолар.....	71
<b>Т.Аллаёров.</b> Жаҳон ва ўзбек тилшунослигида бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи масалалари.....	76
<b>S.Israilova.</b> Lingvokulturologiyada rang masalasi.....	81
<b>N.Yuldasheva.</b> Nutqiy odatlarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	86
<b>О.Тўйчиева, М.Толибжонов.</b> Муштарак мақолларнинг семантик хусусиятлари.....	90